

«INTERFAOL METODLARNI AHAMIYATI, AFZALLIKLARI VA DARS JARAYONIDA QO'LLASH USULLARI»

Xudoyberganova Sevara Azimovna

O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri

Sirg'ali tibbiyot kolleji katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada interfaol metod tushunchasi, interfaol metod turlari, ta'lif samaradorligini oshirishda interfaol metodlarning afzalliklari o'r ganilgan.

Kalit so'zlar: metod, interfaol metod, Sinkveyn usuli, klaster usuli, insert usuli, aqliy hujum (Breynstorming), Venn diagrammasi, kubiklar usuli.

Ta'lif yangi bosqichga ko'tarilmoqda, o'quvchilar fikr darajasi kengaymoqda, axborot olish osonlashmoqda, bunday o'sish jarayonida o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish darsning samaradorligini oshiradi. Bugungi kunda axborot ko'lami juda kengayib ketdi. Agar o'qituvchi o'z ustida ishlamasa avvalgi o'rgangan bilimlari yetarli bo'lmay qoladi. Dars mavzularini kundalik hayotdagि keskin voqealar bilan bog'lab o'tilsa, turli innovatsion texnologiyalardan foydalanilsa dars esda qolishiga erishilishi mumkin. O'qituvchi o'quvchilarga innovatsion usullardan foydalanib, fanlararo bog'langan holda ekologik-gegiynik bilimlar bilan darsni to'ldirishi zarur.

Interfaol metodlar-bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib ta'lif mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarnig oziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchi-talabalarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi. Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lb, ularga quydagilar kiradi:

-O'quvchi-talabaning dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etishi;

-O'quvchi-talabalarni o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo'lishini ta'minlashi;

-O'quvchi-talabaning bilimga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda har-bir masalaga ijodiy yondashgan xolda kuchaytirishi;

-Pedogok va o'quvchi-talabaning hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkillanishi.

Bugungi kunda amaliy o'yinlar, muammoli o'qitish, interfaol ta'lif, modul-kredit tizimi, masofali o'qitish, blended learning(arylash o'qitish) va maxorat darslari ta'lifning innovatsion shakllari sifatida e'tirof etilmoqda.

Zamonaviy yondashuv va innovatsiyalar asosida o'qitish tizimining vazifasi

o'quvchining individual qobilyatini hisobga olish va rivojlantirishdan iborat bo'lishi kerak.

Ilmiy-texnik taraqqiyot jadallahuvi sharoitida uning yuksalib boruvchi talablariga javob beradigan mutaxasislarni tayyorlash uchun o'qitishni jadallashtirish, o'qitishda inson organizmining, uning ongini butun imkoniyatlaridan to'la foydalanish zarur bo'ladi. Bu esa o'qitish jarayonida axborotlar berishda, o'quv materialini tizimlash va turkumlash usullari, o'qitishni kompyuterlash, o'quv televediniyasidan foydalanish va hakozolarni anglatadi.

Interfaol usullarga quyidagilarni misol keltirishimiz mumkin.

1. Sinkveyn usuli
2. Klaster usuli
3. Insert usuli
4. Aqliy hujum (Breyn storming)
5. Venn diagrammasi
6. Kubiklar usuli.

Quyida shu usullarni mohiyati bilan tanishib chiqamiz.

Sinkveyn usuli. Sinkveyn - fransuz tilida «5 qator» ma'nosini bildiradi. Sinkveyn- ma'lumotlarni sintezlash (bir butunga keltirish)ga yordam beradigan qofiyalanmagan she'r bo'lib, unda o'rganilayotgan tushuncha (hodisa, voqeа, mavzu) to'g'risidagi axborot yig'ilgan holda, o'quvchi so'zi bilan turli variantlarda va turli nuqtai nazar orqali ifodalanadi. Sinkveyn tuzish- murakkab g`oya, sezgi va hissiyotlarni bir nechagina so'zlar bilan ifodalash uchun muhim bo'lgan malakadir. Sinkveyn tuzish jarayoni mavzuni yaxshiroq anglashga yordam beradi. Sinkveyn tuzish qoidalari:

- 1-qator: Mavzu bir so'z bilan ifodalanadi (odatda ot tanlanadi).
- 2-qator: Mavzu ikkita sifat bilan ifodalanadi (2 ta sifat yoziladi).
- 3-qator: Mavzu doirasidagi hatti-harakatni uchta so'z bilan ifodalanadi.(3 ta fe'l yoki ravishdosh yoziladi).
- 4-qator: Mavzuga nisbatan munosabatni anglatuvchi va to'rtta so'zdan iborat bo'lgan fikr yoziladi.(4 ta so'zdan iborat jumla yoziladi).
- 5-qator: Mavzu mohiyatini takrorlaydigan, ma'nosи unga yaqin bo'lgan bitta so'z yoziladi (mavzuga sinonim so'z yoziladi).

Klaster usuli. Klasterlarga ajratish- o'quvchilarga biror-bir mavzu to'g'risida erkin va ochiq tarzda fikr yuritishga yordam beradigan pedagogik strategiyadir. Bu usul ko'p variantli fikrlashni o'rganilayotgan tushuncha (hodisa, voqeа)lar o'rtasida aloqa o'rnatish malakalarini rivojlantiradi. «Klaster» so'zi g`ujm, bog'lam ma'nosini anglatadi. Klasterlarga ajratishni da'vat, anglash va mulohaza qilish bosqichlaridagi fikralashni rag`batlantirish uchun qo'llash mumkin. U asosan yangi fikrlarni uyg'otish, mavjud bilimlarga yetib borish strategiyasi bo'lib,muayyan mavzu bo'yicha yangicha

fikr yuritishga chorlaydi.

- Klasterlar tuzishdan yangi mavzuni mukammal o'rganmasdan oldin foydalanish maqsadga muvofikdir.
- Klaster tuzish ketma-ketligi:
- Katta varog` qog`ozning o'rtasiga yoki sinf doskasiga yoxud yozish uchun foydalanish mumkin bo'lган sathga «kalit» so'z yoki gap yoziladi;
- Shu mavzuga tegishli deb hisoblangan va xayolga kelgan so'z va gaplar yoziladi;
- Fikrlar paydo bo'lгanda va ularni yozganda fikrlar o'rtasida mumkin bo'lган bog`lanishlarni belgilash;
- Fikrlar tugamaguncha yoki vaqt tamom bo'lgunicha xayolga kelgan barcha fikrlar yozilaveradi;
- Keltirilgan so'z va fikrlar mazmuni va yaqinligiga qarab toifalarga ajratib chiqiladi.

Insert usuli. Insert usuli tushunishni kuzatish vositasidir. Insert- bu o'quv jarayonida o'z anglashini faol kuzatish uchun o'quvchilarga imkoniyat beradigan kuchli vositadir, chunki shunday hollar borki, odam matnni oxirigacha o'qib, u yerda nima yozilganligini eslab qololmasligi mumkin. Bu esa odam nima o'qiyotganini tushunmay, o'qish jarayonida faol bo'lishga qatnashmaydigan va o'z anglashini kuzatmaydigan hollarning misolidir. Insert- bu matn bilan ishlaganda faollikni qo'llab-quvvatlash uchun kuchli vositadir.

➤ O'quvchi matn bilan ishlayotganda bir qator belgilarni qo'yib boradi, ular esa quyidagi ma'nolarni bildiradi:

- V - bilganlarimni tasdiqlaydi
- + - yangi axborot
- - - bilganlarimga zid keladi
- ? - meni o'ylantirib qo'ydi.

Aqliy hujum (Breyn storming). Aqliy hujum - g`oyalarni generatsiya qilish usuli. Bu metodning mohiyati jamoa hamkorligi asosida muammoni yechish jarayonlarini vaqt o'yicha bir qancha bosqichlarga (g`oyalarni generatsiyalash, ularni tanqidiy va konstruktiv holatda ishlab chiqish) ajratishdan iborat.

➤ «Aqliy hujum»dan maqsadli foydalanish o'kuvchilarning ijodiy va nostandart tafakkurlashini rivojlantiradi. Usulni qo'llash uchun dastlab yig'ilgan guruh odiga muammo quyiladi. Bu muammoni yechimiga oid munozarada barcha o'kuvchilar ishtirok etadilar va o'z fikrlarini bildiradilar. Bunda bahslashuvchilarga miyaga qannday fikr quyilib kelsa, uni tanqidsiz va asoslamay erkin, «tilga nima kelsa» aytish imkoniyati beriladi. Dastlabki bosqichda hech kimni o'zga kishi g`oyalariiga «hujum» qilishi yoki baholashiga haqqi yo'q. «Aqliy hujum yo'li bilan qisqa daqiqalarda o'nlab g`oyalarni yuzaga chiqish imkoniyatlari mavjud bo'ladi.

➤ Venn diagrammasi. Venn diagrammasi bir-birini kesadigan ikki yoki undan ko'p doiralarda ko'rildi, ular o'rtasida yozish uchun yetarli joy qolishi kerak. U g`oyalarni zidlash uchun ishlatalishi yoki ularning umumiy xususiyatlarini (nimada ular kesishadi) ko'rsatishi kerak. Masalan, o'quvchilar Xristofor Kolumb ekspeditsiyalarini Marko Polo ekspeditsiyalari bilan taqkoslaydilar deylik. Venn diagrammasi bir-biriga yopishgan ikki doira bilan birga ushbu ekspeditsiyalar o'rtasida zidlik o'tkazish, ayni vaqtida ularning umumiy unsurlarini ko'rsatish imkonini beradi.

Kubiklar usuli. Kubiklar- o'zgartirilayotgan kelajakka asoslanib mavzuni ko'rib chiqishga yordam beradigan o'qitish usulidir. Har tomonlamam fikrlashga (yozishga) yordam beradigan har xil yo'l-yo'riklar yozilgan kubik ishlataladi. Tomonlarining hajmi o'rtacha 15-20 sm bulgan qutichaga qog'oz yopishtirib, kubik yasash mumkin. Kubikning har bir tomoniga quyidagi oltita yo'l-yo'riq yoziladi: buni tasvirlang, buni taqqoslang, buni o'zaro bog'lanishini ko'rsating, buni tahlil qiling, buni qo'llang, yaxshi va yomon tomonlarini ko'rsating (dalillar yordamida). O'tiladigan mavzu yoki biror tushuncha shu jadval savollari asosida tahlil qilib chiqiladi.

XULOSA: Interfaol usullar orqali ta'lim samaradorligi oshadi, o'qituvchi va talaba o'rtasida o'zaro hamkorlik; talabalarda erkin ijodiy fikrlash ko'nikmalari rivojlanafi va shaklladi. Bu innovatsion yondashuvda talaba shaxsi ta'limda markaziy figuraga aylanadi. O'qilishda noan'anaviy shakllar interfaol usullarni 3 guruhga ajratish mumklin: o'qitishda hamkorlik, modellashtirish, o'rganishning tatqiqot modeli. Bu metodlar orqali ta'lim samaradorligini oshiriladi, o'quvchilar dunyoqarashini kengaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A. Abduqodirov, R. Ishmuhammedov. "Ta'limda innovatsion texnologiyalar" T.: 2008. – 128 b.
2. А. Мавлонов. ва бошқалар. Ўқув машғулотларини ташкил этишда таълим технологиялари. Ўқув қўлланма. «Тафаккур бўйтони» нашриёти, Тошкент, 2013. - 142 бет.
3. Б.Х. Рахимов., А. Мавлянов., В. Чориев. ва бошқалар. Педагогик технологиялар схемаларда. Ўқув қўлланма. – Т.: Фан ва технологиялар., 2009. - 124 б.
4. B.Y. Xodiev., L.V Golish., O.K. Rixsimboev. Keys-stadi - iqtisodiy oliv o'quv yurtidagi zamонавиyy ta'lim texnologiyasi: Ilmiy-uslubiy qo'llanma /“Zamonaviy ta'lim texnologiyalari” turkumi. -T.: TDIU, 2009. – 150 b.
5. D. Axatova, F. Xodjibaeva. Pedagogik tenologiyalar fanidan laboratoriya mashg'ulotlari (Metodik qo'llanma). – Navoiy, 2011. - 92 b
6. Ж.Ф. Йўлдошев., С.А. Усмонов. Педагогик технология асослари. – Т.: Ўқитувчи, 2004. - 102 б.